

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**"EDUCATIONAL IMPORTANCE OF MUSEUMS IN IMPROVING THE SPIRITUAL AND AESTHETIC OUTLOOK OF YOUNG PEOPLE"**

Khakimjon Shodmonov

Master's student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: culture, people, purpose, rich values, heritage, generation.

Received: 10.02.24

Accepted: 12.02.24

Published: 14.02.24

Abstract: In order to further enrich the spiritual and educational outlook of young people, our cultural heritage is preserved and passed on from generation to generation. In this article, we will consider the spiritual impact and aspects of national values on young people.

"YOSHLARNI MA'NAVIY - ESTETIK DUNYOQARASHINI TAKOMILLASHTIRISHDA MUZEYLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI"

Hakimjon Shodmonov

Magistratura talabasi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zлari: madaniyat, xalq, maqsad, boy qadryatlar, meros, avlod.

Annotatsiya: Yoshlarning ma'naviy va ma'rifiy dunyoqarashini yana ham boyitish maqsadida madaniy meroslarimiz saqlanib avloddan avlodga boy meros bo'lib o'tmoqda. Ushbu maqolada ham milliy qadryatlarning yoshlarga manaviy tasiri va jihatlarini ko'rib chiqamiz.

«ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МУЗЕЕВ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ДУХОВНО-ЭСТЕТИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ»

Хакимджон Шодмонов

студент магистратуры

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: культура, люди, предназначение, богатые ценности, наследие, поколение.

Аннотация: В целях дальнейшего обогащения духовно-образовательного мировоззрения молодежи наше культурное наследие сохраняется и передается из поколения в поколение. В этой статье мы рассмотрим духовное воздействие и аспекты национальных ценностей на молодежь.

KIRISH

Davlatimizni mustaqillikni qo‘lga kiritishi iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhalarida bo‘lganidek madaniy sohada, shu jumladan, boy o‘tmish merosimizni o‘rganish, saqlash va uni keng xalq ommasiga targ‘ib etish borasida ham tub burilish yasadi. Xalqimiz o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlab, barcha sohalarda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari darajasiga etib olishdek ezgu maqsad sari intilmoqda. Uni amalga oshirish uchun yuksak malakali, ahloqiy barkamol mutaxassislar kerak. Shu jihatdan, aqlan yetuk, axloqan pok va jismonan baquvvat insonlarni tarbiyalash masalasi davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu borada ajdodlarimizning boy ma`naviy, ahloqiy merosining ahamiyati beqiyosdir. Darhaqiqat, buyuk siymolar bo‘lmish otabobolarimiz qoldirgan ma`naviy merosni ta`lim-tarbiya sohasiga tatbiq etish jamiyatimizning ahloqan barkamol a`zolarini shakllanishida samarali vositadir. Vatanimiz tarixi, xalqimizning ozodlik uchun kurash yo‘li haqida aholining bilimini oshirishda muzeylarning o‘rni muhim. Muzeylar tariximizni o‘rganishga, kechagi va bugungi hayotni taqqoslab, jamiyatimiz taraqqiyoti haqida to,,g,,ri xulosa chiqarishga xizmat qiladi. Vatanimiz ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar, yangilanishlar qatorida O‘zbekiston hududidagi muzeylar faoliyatida ham yangi davr boshlandi.

ASOSIY QISM

O‘zbekistonda muzeylarni yangi tarixi 1992-yildan boshlandi va muzeylarga bo‘lgan e’tibor yanada oshdi. Muzeylar madaniy-ma’rifiy muassasa hisoblanib, uning vazifasi aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, tarixiy hujjatlar, madaniy va ma’naviy yodgorliklarni to,,plash, tabiiy boyliklardan namunalar jamlash va saqlash, ularni ilmiy jihatdan o‘rganib ko‘rgazmalarga qo‘yish va keng xalq ommasiga havola qilishdan iborat. Muzeylar aholining keng tabaqalari o‘rtasida madaniy-ma’rifiy ishlarni olib boradi, moddiy va ma’naviy madaniyat yodgorliklarini, shuningdek tabiat va insoniyat jamiyatini taraqqiyoti xaqidagi bilimlarning ilk manbalari xisoblanadigan tabiiy — tarixiy kolleksiyalarni to‘plash, saqlash, o‘rganish, ko‘rgazma qilish va ommaga yetkazish bilan shug‘ullanadi. Kishilar uchun eng avvalo ma’rifiy-madaniy, ilmiy va dam olish maskani bo‘lgan muzeylarni o‘tmish va hozirgi hayotimizning oynasi deyish mumkin. Xalqimiz qadim zamonlardan beri o‘z tarixinining shonli sahifalariga oid noyob osori atiqalarini asrab-avaylab keladi. Ulug‘ insonlar, tabarruk allomalar hamda qahramonlaridan esdalik bo‘lib qolgan buyumlar, tarixiy manbalar afsonalarga aylanib, avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Keyinchalik, masalan, temuriylar davrida

saroylarda, boshqa xazinalarda shunday noyob buyumlarni bir joyga to‘plab, aziz mehmonlarga namoyish etish odat tusiga kira borgan. Tarixchilarning asarlarida hazrat Sohibqiron Amir Temur vafotidan so‘ng uning qurol-aslahalari, sovg‘alar va qator harbiy o‘ljalari maqbara ichiga qo‘yilganligi hamda bu narsalar haqida ziyoratchilarga so‘zlab berilganligi qayd etiladi. Maqbaraga qo‘yilgan har bir buyum nodir tarixiy va madaniy yodgorlik hisoblanar edi. Mamlakatimiz madaniy hayotida shu davrdan boshlab muzeylar faoliyati shakllana boshlagan desak bo‘ladi. Buxoro amiri Abdul Ahadxon saroyida tarixiy buyumlarni mehmonlarga namoyish etadigan maxsus xonalar bo‘lgan. Bu xonalar “Moziygoh” deb atalib, tom ma’noda hozirgi muzey tushunchasiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz saroyida ham shunday “Ajoyibxona” bo‘lgan. Inson tinimsiz go‘zallikka intiladi, go‘zallikni ijod qilmasdan, undan ma’naviyruhiy zavq olmasdan va shu orqali o‘z turmushini bezatmasdan yashay olmaydi. Dunyodagi barcha xalqlar kabi o‘zbek xalqi ham juda qadim davrlardan buyon xalq ruhiyati, turmush sharoitlarini o‘zida aks ettiruvchi amaliy san’at asarlarini yaratib kelgan. Tabiiyki, moddiy madaniyat mahsuli bo‘lgan xalq amaliy san’at asarlari ijtimoiy hayotning bir bosqichidan ikkinchisiga meros bo,,lib o,,tib, avlodlarning beqiyos madaniy boyligiga aylanib boraveradi. Respublikamizning boshqa joylardan, ayniqsa chet mamlakatlardan kelayotgan sayyoohlар ham yurtimiz tarixini o,,rganish, xalqimiz hayoti bilan chuqurroq tanishish maqsadida albatta muzeylarimizga kiradi. Muzeylar qanchalik ko,,p va boy bo,,lsa, boshqalar ham bizni yanada yaxshiroq biladi. Shuning uchun har bitta hududning o‘z muzeyi bo‘lishi kerak. «Buyuk ipak yo‘li»da joylashgan O‘zbekiston Sharq bilan G‘arbni bog‘lovchi, ularni iqtisodini, madaniyatini, san’atini, taraqqiyotini bog‘lab turadigan bir makon bo‘lgan. «Buyuk ipak yo‘li»ning vorisi sifatida O‘zbekistonga ko‘plab mamlakatlar AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va Italiya kabi davlatlar juda katta qiziqish bilan qaramoqda. Ular ajdodlarimiz me’ros qilib qoldirgan muzeylarimizda saqlanayotgan noyob osori — atiqalarni ko‘rish, qadimiylarini — tariximiz, boy madaniyatimiz bilan tanishish istaklarini bildirmoqdalar. Bugungi kunda mamlakatimiz hududidagi turli muassasalar, korxonalar, qurilish tashkilotlari, qishloq, shahar, tuman, viloyat markazlarida, xalq ta’limi tizimida ja’mi 1200 dan ziyod muzeylar ishlab turibdi va ularda 1.350 ming eksponatlar mavjud. Ularning eng yiriklari poytaxtimizda joylashgan. Shu bilan birgalikda o‘nlab yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar va mashhur san’at arboblarining uy muzeylari ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Davlatimiz rahbarining muzeylar faoliyatini yaxshilashga, bu tarixiy-madaniy maskanlarning xalqimiz hayotidagi o‘rniga e’tibor qaratayotgani bejiz emas. Tarixini bilmagan avlod bugungi ishlarni to‘g‘ri baholamaydi, kelajakni aniq tassavvur etmaydi. Shu ma’noda muzeylar tariximizni, kechagi kunimizni xaqqoniy aks ettiruvchi ko‘zgudir.

XULOSA

Jamiyatni ma’naviy-axloqiy kamolga yetkazishga keng aholi ommasini, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda muzeylarning ahamiyati va roli katta ahamiyat kasb etmoqda. Boy tabiiy-iqtisodiy,

tarixiy-ma'naviy, aql-zakovat salohiyati, eng muhimi sabr-bardoshli, diyonatli, vatanparvar va millatparvar, mehnatkash va bag'ri keng, diyonatli xalqi bo'lgan O'zbekiston bugun rivojlangan davlatlar orasida munosib o'rinnegallamoqda. Bu hayratomuz yutuqlarga eng avvalo xalqimizning azaliy orzu-umidlari, maqsad-intilishlarini tom ma'noda ifodalovchi va har tomonlama himoya qiluvchi, ajdodlarimiz qoldirgan boy tarixiy tajriba va ma'naviy merosga tayangan mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish tamoyillari mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda muzeylarga ma'naviyat va ma'rifat ulashuvchi, ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatga molik maskan sifatida yondashiladi. Muzeylar yosh avlod tarbiyasi jarayoniga munosib hissa qo'shuvchi ko'makchi maskandir. Shunday ekan har bir ta'lim muassasada faoliyat yuritayotgan pedagoglar muzeylarga yosh avlodni olib borganda o'z oldiga quyidagi talablarni qo'yib borishi maqsadga muvofiq;

- muzey va uning jamlanmalari orqali ta'lim oluvchilarda qiziqish uyg'otish;
- yoshlarda muzey yodgorliklariga ehtiyojkorona, hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni mamlakatimiz tarixi, madaniyatining bir qismi sifatida anglash tuyg'ularini shakllantirish;
- muzey o'zida jamlangan materiallar vositasida ta'lim oluvchilarning bilim doirasini kengaytirishda muhim o'rinnutishini eslatib qo'yish;
- muloqotchanlikni shakllantirish — muzey mavzusiga oid mavzularda qiziqishlar bo'yicha turli tadbirdarning tashkil etilishi jarayonida o'quvchi - talaba yoshlar faol muloqotga chorlanadi. Muzeylarda taqdim etilayotgan muzey-axborotlari muloqotchanlikka qulay imkoniyat yaratadi, bunda mazmunli, qiziqarli, norasmiy shaxsiy muloqot yuzaga keladi. Muloqot uchrashuv, seminar, viktorina va boshqa tadbirdar shaklida o'tkazilishi mumkin. Muzeylarga tashrif buyurganda har bir pedagog birinchi navbatda, o'sib kelayotgan avlodga o'tmish ajdodlari ruhiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, o'z Ona Vatani tarixiga qiziqishni o'stirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quvchi va talaba yoshlarda muzey madaniyatini shakllantirishga yo'naltirishi lozim